IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

ZAMONAVIY PEDAGOGIKANING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Umirov Bahodir Turdimuradovich

Guliston davlat pedagogika institutining o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda pedagogika, tarbiya va ta’lim uzluksizligi asosida olib boriluvchi jarayon sifatida jamiyatdagi taraqqiyotning yo‘nalishini belgilab beruvchi, aytish mumkin bo‘lsa uni yo‘naltiruvchi sohalardan biri ekanligini anglagan holatda uning zamonaviy ko‘rinishlarini taklif qilish dolzarb ekanligini ko‘rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Pedagogika; ijtimoiylashuv; oila instituti, dunyoqarash, shaxs, didaktika.

Pedagogika bu yunon tilidan olingan bo‘lib, „bola yetaklovchi“ degan ma’noni bildiradi[1]. Tarix manbalarining ta’kidlashicha, qadimgi Yunonistonda o‘z xo‘jayinining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan, harbiy mahoratni o‘rgatgan tarbiyachini „pedagog“ deb atashgan. Tarixiy taraqqiyot davomida, maxsus o‘qitilgan va pedagogika sohasi bo‘yicha kasbiy bilimlarga ega kishilarni pedagog deb atay boshlashgan. Pedagogika tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o‘quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo‘sinlarini belgilab beradi. Shaxsni tarbiyalash, o‘qitish, shakllantirish va ijtimoiylashuviga yordam berish sohaning ko‘zlangan vazifalari hisoblanadi. Yetuk shaxsni tarbiya qilish pedagogikaning asosiy vazifasi bo‘lib, bu jarayonda oila instituti bilan faol hamkorlik qiladi. Ushbu faoliyat natijasida esa jamiyatga barkamol shaxsni yetishtirib berishi bilan birga jamiyat rivojining asosiy bo‘g‘ini ekanligini ham isbotlaydi. Tarbiya yordamida shaxsning ma’naviy jihatlari kamol toptirilishi maqsad qilib olinadi. Shu bilan birga undagi dunyoqarashni shakllantirish, e’tiqodni mustahkamlash, ahloqni kamol toptirish, go‘zallikga oshufta etish kabi maqsadlari ham borki bu murakkab ham uzluksiz jarayondir. Shu bilan birga aytish mumkinki shaxsning tarbiyasi bir makon va zamon qamrovida ham bo‘lmasligi zarur yani u doim boshqa usul, amaliyot va yo‘nalishlarni ham o‘zida aks ettirib borishi zarur[2].

O‘qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta’minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma’lumotni olish imkoniga ega bo‘ladi. Tarbiyalash va o‘qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi. Shaxs tarbiyalash va o‘qitish orqali o‘zida oldin bo‘lmagan ma’naviy-intellektual sifatlarga ega bo‘ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga sabab bo‘ladi[3].

Shaxs va uni shakllantirishga doir fan sifatida pedagogika barcha fan tarmoqlari bilan uzviy aloqada faoliyatni tashkil etadi. Pedagogika fani va amaliyoti taraqqiyotida bu fanlarning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari, ilmiy xulosalarni aniqlash, tahlil qilish hamda umumlashtirish usullaridan foydalanadi. Pedagogikada ta’lim va tarbiya jarayonlarining qaysi jihatlarini o‘rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo‘limlar mavjud. O‘qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug‘ullanadigan sohasi didaktikadir. Shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e’tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma’naviy jihatlarni shakllantirish masalalarini pedagogikaning tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog‘i o‘z ichiga oladi. Ayrim o‘quv fanlarini o‘qitish qonuniyatlari va usullarini o‘rgatuvchi metodika fanlari ham pedagogikaning

sohalari hisoblanadi. Bularga nisbatan didaktika umumiy metodika hisoblanadi va har bir alohida predmeti metodikasi xususiy didaktika sanaladi. Ammo bu xil chegaralanish anchagina shartlidir. Chunonchi, adabiyot o‘qitish metodikasi didaktikaga nisbatan xususiy didaktika hisoblanadi, ayni vaqtda, u mumtoz adabiyot tarixini o‘rganish metodikasi, chet el adabiyotini o‘rganish metodikasi, xalq og‘zaki ijodini o‘rganish metodikasiga nisbatan umumiy metodika vazifasini bajaradi. Xususiy metodikalar umumiy didaktikaga tayangan va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina rivojlana oladi. Ayni vaqtda, har bir aniq fanga tatbiq etilgan didaktik qonuniyatlar o‘sha o‘quv predmetini o‘qitish tajribasidagi o‘ziga xoslik bilan boyitiladi, umumiy jihatlarni konkretlashtiradi, har bir o‘ziga xoslikda o‘qitishning universal jihatlarini namoyon etadi.

Shu bilan birga milliy pedagogika tizimi haqida ham to‘xtalish muhimdir. O‘zbek pedagogikasi juda qadimiy tarixga ega bo‘lib, uning dastlabki ildizlari Avesto, Urxun-Yenisey bitiklariga, Selung'ur madaniyatiga borib taqaladi. Avestodagi ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal haqidagi, kishilarga ko‘ngil ma’rifati berish borasidagi qarashlar yozma milliy pedagogik qarashlarning dastlabki namunasi bo‘lib, yetuk insonni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Milliy pedagogikaning taraqqiyotida islom dini va tasavvuf ta’limoti hal qiluvchi o‘rin tutadi. Chunki, Qur’oni karim, Hadisi sharif va tasavvuf ta’limotining markazida axloq, komil inson ma’naviyatini shakllantirish turardi. Komil inson ta’lim-tarbiya yordamida, ya’ni pedagogika vositasida tarkib toptirilishi mumkin edi. Forobiyning fozil oda mlari, Beruniy, Ibn Sino falsafiy qarashlaridan o‘rin olgan yetuk shaxslar, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy asarlarida tasvirlangan benuqson odamlar, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab orzulagan komil inson o'zbek pedagogikasining markazida turardi. XVII asrdan boshlab, milliy pedagogikada ta’lim-tarbiyaning mohiyatiga emas, balki tashqi jihatlariga e’tibor kuchaydi, turmush talablarini hisobga olmay, hayotiy zamindan uzilish sodir bo‘ldi. Natijada, jamiyat taraqqiyoti susaydi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ham tanazzulga yuz tutildi. Pedagogikadagi biqiqlik, biryoqlamalik kishilar ruhiyatiga ko‘chdi, undan ijtimoiy tartibotlar va siyosiy qurilmalarga o‘tdi. Butun bir davlat xonliklarga bo‘linib ketdi. Xonliklarning har birining ichida bir-biri bilan kelishmovchilik hamda o‘zaro janjallar avj oldi. Negaki, jamiyat va unda yashaydigan insonlarning ma’naviy o‘rnaklari puxta tayin etilmagan edi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi natijasida milliy ong mafkuraviy qolipdan qutuldi. Bu hol pedagogikaning sog‘lom aql, milliy ruhiyat va an’analarga mone tarzda yo‘lga qo‘yilishiga imkon yaratdi. Bugungi o‘zbek pedagogikasi millat ruhiyatidagi nozik jihatlarni hisobga olgan va dunyo tarbiyashunosligidagi eng so‘nggi yutuqlarga tayangan holda taraqqiy etmoqda. Zamonaviy o‘zbek pedagogikasida barkamol insonni shakllantirish rasmiy ravishda bosh maqsad qilib belgilangan. Bu pedagogika ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchi va tarbiyalanuvchilarning faol ishtirok etishlarini ko‘zda tutadi. Bolalar, yoshlar pedagogik jarayonning obyektigina emas, balki subyekti, ya’ni ijrochisi ham ekanligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda, barcha pedagogik tadbirlar ta’lim-tarbiya oluvchilarning mustaqil fikrlashlarini ta’minlash, ularda tarbiyalanish va o‘qishga ehtiyoj uyg‘otishga yo‘naltirilgan holda tashkil etilmoqda. Bugungi o‘zbek pedagogikasi uchun muayyan bilimlar yig'indisi emas, balki bola shaxsi bosh qadriyatga aylangan. Shuning uchun ham milliy pedagogikada faqat bilimli o‘quvchilar

tayyorlashga emas, balki izlanuvchan, tashabbuskor shaxsni shakllantirishga asosiy e'tibor berilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Pedagogika
2. Akbarjonovich, M. A. (2023). MIGRATSIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI. *IQRO JURNALI*, *2*(1), 628-631.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Pedagogika
4. Nuriddin Akramkulovich Saidkulov (2020). THE IMPACT OF THE REFORMS ON THE POLITICAL CULTURE OF YOUTH. Academic research in educational sciences, (1), 152-156. doi: 10.24411/2181-1385-2020-00022
5. Akramovich, Saidkulov N. "The Effect of Dynamic Changes in Society on the Political Culture of Youth." European Journal of Humanities and Educational Advancements, vol. 1, no. 2, 2020, pp. 7-9.
6. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.
7. Akramkulovich, S. N. (2020). International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding.
8. Саидкулов, Н. А. (2020). ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ КРЕАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 1(1).
9. Akramkulovich, S. N. (2020). METADOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH POLITICAL CULTURE ON THE BASIS OF INNOVATIVE-CREATIVE APPROACH. Восточно-европейский научный журнал, (5-5 (57)), 39-42.
10. Akbarjonovich, M. A. (2023). MIGRATSIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI. *IQRO JURNALI*, *2*(1), 628-631.
11. Saidkulov, N. A. (2020). The Impact of the Reforms on the Political Culture of Youth. Academic research in educational sciences, (1), 152-15
12. Akramovich, S. N. (2020). The Effect of Dynamic Changes in Society on the Political Culture of Youth. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 1(2), 7-9.
13. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.
14. Саидкулов, Н. А. (2020). ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ КРЕАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 1(1).
15. Akramkulovich, S. N. (2023). HISTORICAL ROOTS OF THE FORMATION OF EASTERN POLITICAL THOUGHT. World Bulletin of Social Sciences, 19, 173-176.
16. Saidkulov, N. ISSUES OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF YOUTH POLITICAL CULTURE IN THE NEW RECONCILIATION PERIOD OF UZBEKISTAN.